

МАЖБУРИЙ НУСХА

*Naima Nazaraliyeva*

**Jannatmakon  
o'lkam mening**

*She'rlar*

«Namangan» nashriyoti  
2015 yil.

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 5 (O'zb 7)

~~N-35~~

N-18

Yzg. agad,

Jannatmakon o'l kam mening // She'rlar  
«Namangan» nashriyoti-2015-yil.

ISBN 978-9943-989-32-0

1389-5007.25-1805500  
NG-----2015  
1390-(1.5)-(08)

© «Namangan» nashriyoti, 2015

2015/130	Alisher Navoiy
A 8730	nomidagi
O'zbekiston MK	

1044963  
0

## O'ZBEKISTON

Erk va ozod, hur guliston,  
Yashnayotgan bog'-u bo'ston.  
Yetti iqlim aro doston,  
O'zbekiston, O'zbekiston.

Purviqordir baland tog'i,  
Gulga to'lgan chaman bog'i.  
Tinch - osoyishta har yog'i,  
O'zbekiston, O'zbekiston!

Keksalari xo'b duogo'y,  
Odamlari halol, haqgo'y.  
Har bir kuni bayram va to'y,  
O'zbekiston, O'zbekiston!

Musaffodir bunda osmon,  
Havosi - sof toza har on.  
O'ziga bek, o'ziga xon,  
O'zbekiston, O'zbekiston!

Bog'laridan ketmas bahor,  
Qalbim to'la ming iftixor.  
Bormi shunday nurli diyor,  
O'zbekiston, O'zbekiston!

Har go'shasi birdek go'zal,  
Hur nazar solgan azal.  
Ta'rifingga bitdim g'azal,  
O'zbekiston, O'zbekiston!

## O'ZBEKISTON BAYROG'I

O'zbekiston bayrog'i!  
Vatanimiz ramzisan.  
Xalqimning ko'z qarog'i,  
Avlodlarning sha'nisan.

Senda to'rt rang mujassam,  
Ko'k, oq, yashil, qizil rang.  
Oy-u o'n ikki yulduz ham,  
Ma'nolari rang- barang.

Yashil ranging tasvirlar,  
Yasharish, yangilanish.  
Oq rang esa bildirar,  
Tinchlik, soflik, poklanish.

Qizil rangi tiriklik,  
Tomirlarda oqqan qon.  
Va ko'k rangidir soflik,  
Udir musaffo osmon.

Yarim oy va yulduzlar,  
Qadryatlar timsoli.  
Baxt porlaydi kunduzlar,  
Erk- ozodlik misoli.

Hilpirab moviy ko'kda,  
Ko'tarilgin bayrog'im.  
Erklik ramzi bo'lib qol,  
Qadrdon ko'z qarog'im.

**«MUSTAQILLIK TUFAYLI...»**

Mustaqillik tufayli,  
Qadr topdi yurt.  
Ko'kda bayroq hilpirar,  
Elning bag'ri but.

Har bir yilni nishonlab,  
Nom berdik unga.  
Shukronalar qilamiz,  
Shu tinchlik kunda.

Kelajakka poydevor,  
Barkamol avlod.  
Omadli va beg'ubor,  
Barkamol avlod.

Mustahkam oila bu,  
Yurt uchun arkon.  
Yurtning ishonchin oqlar,  
Sog'lom bolajon.



### TINCHLIK MADHI

Tinch - osoyishta dunyo,  
Qabohatga to'lmasin.  
Insoniy fazli - ziyo,  
Zulmatdayin so'lmasin.

Gurkiragan vodiylar,  
Olovlardaga qolmasin.  
El faxri - fidoiylar,  
Mehnat qilib tolmasin.

Daryo-yu sharqiroq soy,  
Qizil qonga to'lmasin.  
Olamda qonli urush,  
Janglar sira bo'lmasin.

Lekin dunyo tinch bo'lsin,  
Jannah ifori to'lsin.  
Har xonodon har uyda,  
Go'daklar shodon kulsin.

Daryolar to'lib oqsin,  
Quyosh jilmayib boqsin.  
Ezgulik va yaxshilik,  
Qalbning chirog'in yoqsin.


## VATAN

Vatan nedir? - Bu aziz tuproq,  
Vatan- ona, mustahkam qo'rg'on.  
Millatlardir bunda do'st- o'rtoq,  
Birdamlik-la yurt qasrin qurgan.

Vatan- ota, aziz koshona,  
Ajdodlarning merosidir bu.  
Yov buzolmas metin ostona,  
Avlodlarga qolqusidir u.

Vatan ko'kda porlagan quyosh,  
Tafti issiq olovlardan ham.  
Hurlik bo'lsin unga chin yo'ldosh,  
Yiroq bo'lsin undan barcha g'am.

Bu diyorga ko'zlar tegmasin,  
Xalqim yovga boshin egmasin.  
Toki yerda hayot bor ekan,  
Erk quyoshi abad so'nmasin.



## JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT

Biz istiqlol farzandlarimiz,  
O'zbekiston dilbandlarimiz.  
Ma'rifatli bo'lgin ey, do'stim,  
Jaholatdan ma'rifat ustun.

Shu zaminni sajdagoh bilgil,  
Tinchligingga shukrona qilgil.  
Yor-u do'sting, shu ona Vatan,  
Bo'lar senga doim jon-u tan.

Ilmli bo'l, ma'rifatli bo'l,  
Jaholatga aslo berma yo'l.  
Yovuzlikning neligin bilma,  
Ezgulik de, yovuzlik qilma.

Ona yurting shamchirog'i bo'l,  
Yaxshilarning yaxshirog'i bo'l.  
Dilda g'ubor zarra qolmasin,  
Ko'ngling, tiling qushdek sayrasin.

Jaholatni yengasan albat,  
Ezgulikning iforin tarat.  
Gar yashnatsang ezgulik bog'in,  
Yordir senga xalqning ardog'i.

Har bir yurtga tinchlik yarashar,  
Unga havas bilan qarashar.  
Tinchlik bo'isin butun dunyoda,  
Ozodlikdan ne bor ziyoda!

## KELING O'ZBEKISTONGA

Keling O'zbekistonga,  
Go'zal gulli makonga.  
Quyosh bobo nur sochar,  
Favvoralar dur chochar.

Odamlari mehribon,  
Bir-biriga qadrdon.  
Urflari o'zbekona,  
Bu dunyoda yagona.

Havosi sof musaffo,  
Hamma unga mahliyo.  
Keling bizning makonga,  
Go'zal O'zbekistonga.

## O'ZBEKISTON VATANIM

Ey vatanim, jon o'lkam,  
Tanhosan bu jahonda.  
Gullab yashnab boryabsan,  
Har faslda, har onda.  
Dongdorsan yetti iqlim,  
Madhingga ojiz tilim.

Yigirma to'rt yoshida,  
Navqiron, botir elim.  
Maqsading ulug' bo'lsin,  
Bayraming qutlug' bo'lsin.  
Yuragimiz iftixor -  
G'ururda to'lig' bo'lsin.


## DUNYO

Bu shavqatsiz dunyodan,  
Kimlar yashab o'tyapti.  
Kim yaxshi-yu kim yomon,  
Turfa kunlar kutyapti.

Kimlar mol-u mulkim der,  
Kimlar ona yurtim der.  
Kimlar shodlik bog'ida,  
Kimlar farzand dog'ida.

Qadding tik tut birodar,  
Yaxshilik kut birodar.  
O'tayotgan har kuning,  
Oltin ila barobar.

Bu besh kunlik dunyoda,  
Shukr etgil boriga.  
Rizqing bo'lar ziyoda,  
Yarasang el koriga.



**TEMUR BOBOM**

Sohibqiron odil hukmdor,  
Adolatda bo'lgan ustivor.  
Vatan uchun ayamay jonni,  
Birlashtirdi mulki Turonni.

Jahon uzra dovrug'i ketgan,  
Yurti uchun jon fido etgan.  
Vatanparvar jasur bobomi,  
Odil bobom - Temur bobomi.

Yashar uning ulug' siymosi,  
Ajdodlarga mudom ibratda.  
Unitilmas bergen sabog'i,  
O'gitlari: «Kuch - adolatda».



Onajenim mehribonim,  
Duriyoda eng qadrdonim.  
Bayramingiz qutlug' bo'lzin,  
Yuragingiz nurga to'lzin.

Har yumushda ibratim siz,  
Xazinamsiz davlatimsiz siz.  
Farzandligim iftixorim,  
Qiblagohim jannatim siz.

### DADAJON

Umr bo'yi farzandlarim deb,  
Mehnat qilgan, minnat qilmagan.  
El deb yonib, elning g'amin yeb,  
Hech o'zini ibrat qilmagan.

Mehribonim, kamtarim otam,  
Ko'zimizning qarog'i bo'ling.  
Shu el aro bo'lib muxtaram,  
Uyimizning chirog'i bo'ling.

### **ONA TILIM**

Ona tilim buyuksan,  
Sen bizlarga suyuksan.  
Navoiy asos solgan,  
Boburdan meros qolgan.  
So'zlarga boy tilimsan,  
Mening jonu-dilimsan.

### **DUOGO'Y NURONIYLAR**

Uyimiz farishtasi,  
Hovlimiz sarishtasi.  
Nuroniy otaxonlar,  
Duogo'y onaxonlar.

Duoga shay qo'llari,  
Tolmas sira duoda.  
Niyatlari doimo:  
"Tinchlik bo'lsin dunyoda".

Hur Vatanning baxtiga,  
Har doim bor bo'lsin.  
O'zbegimning xalqiga,  
Mustaqillik yor bo'lsin.

**ZULFIYA**

O'zbegimning asl ayoli,  
Unda sof sadoqat mujassam.  
Hayodanda erur hayoli,  
Farishta ayol u muazzam.

Undadir komila kamoli,  
Muhabbat, latofat timsoli.  
Tanolgan kurrai zaminga,  
Erksevar To'maris misoli.

Zulfiya - nazmimiz bogi'da,  
Ardog'u e'zozu malika.  
Xalqining eng ulug' shoirasi,  
Sherlari yetaklar poklikka.



**YOZ FASLI**

Quyosh yuzin ochadi,  
Nurlarini sochadi.  
Atrof qanday ajoyib,  
Anhordan suv toshadi.

Shirin-bolli, mevalar,  
Tilingizni yoradi.  
Shamol tongda nur elab,  
Nurdan xamir qoradi.

Oqshom payti chirillab,  
Chigirtkalar tolmaydi.  
Qushlar kecha-yu kunduz,  
Sayrashdan dam olmaydi.

Tog' oralab sahardan,  
Quyosh qizdirar yerni.  
Yurtim deb bobo dehqon,  
Horib to'kadi terni.

Meni esa she'riyat,  
Chamaniga chorlaydi.  
Yozning oftobi kabi,  
Kelajagim porlaydi.


## NAVRO'Z

Navro'z keldi elimga,  
Gulga to'ldi diyorim.  
Xush yoqadi dilimga,  
Xushbo'y gullar ifori.

Quyosh jilmayib boqar,  
Qushlar qo'ymas sayrashni.  
Bolalarga chiqargan,  
Bu bayramda yayrashni.

Dasturxonni bezatadi,  
Ko'k somsa-yu, ko'k manti.  
Axir bizning Navro'zbek,  
Bahoroyning farzandi.

Doshqozonda qaynaydi,  
Bolday shirin sumalak.  
Yig'lab yuborar osmon,  
Chiqar ko'kka kamalak.



## **YANGI YILNI QUTLAYLIK**

Yangi yilim, assalom,  
Ezguliklar olib kel.  
Yaxshi yilim assalom,  
Sho'x yillarda g'olib kel.

Qutlaylik bayramingni,  
Do'stlar bilan davrada.  
Unutaylik qayg'uni,  
Shunday aziz pallada.

Sen bilan yuzlashmoqni,  
Kimlar armon etmadi.  
Kimlar senga yetdi-yu,  
Kimlar omon yetmadi.

Yaxshi yilim yangi yil,  
Yaxshiliklar olib kel.  
Bir kam dunyo deydilar,  
Sen ulardan g'olib kel.



## **SO'NGGI QO'NG'IROQ**

O'tdi yillar o'tdi bolalik,  
Yuraklarda bir hazin titroq.  
Bizlar aslo, katta bo'l madik,  
Chalinguncha so'nggi qo'ng'iroq.

Ayrilganda qaynoq bag'ringdan,  
She'rlar bitdim madhingga atab.  
Mosuvoman bugun mehiringdan,  
Ona kabi qadrondon maktab.

## **KICHKINA UKAM**

Kichkina ukam,  
Ulg'ayging sen ham.  
Katta bola bo'l,  
Kuch-qudratga to'l.

Yashagin uyg'oq,  
Qalbi chog'li bo'l.  
Bo'l madil qo'rqaq,  
Otam o'g'li bo'l.

### SINGLIMNING JAVOBI

Bir kun dedim singlimga,  
Buncha nozik ko'ngilchang.  
Yillar o'tib ulg'aygach,  
Kim bo'lasan singilcham?

Dedi singlim jilmayib:  
Shirin o'ylar suraman.  
Avval inson bo'laychi,  
Keyin o'y lab ko'raman.

### SO'ZLAR OTASHI

Qalam tutdim jajji qo'limga,  
So'zlar otash yoqdi ko'nglimga.  
Vatan ishq'i onam allasi,  
Mash'al bo'lib chiqdi yo'limga.

Deydilar kim shoir bo'l maydi,  
Ulkan hayot darsxonasida.  
Yozilgandir mening ilk baytim,  
She'riyatning ostonasida.

### ***QISHLOG'IM TABIATI***

Bizning qishlog' tog' etagida,  
Gul vodiylar tevaragida.  
Oq bulutlar yashnatib yotar,  
Tinch musaffo - keng falagida.

To'lib oqar sharqiroq sho'x soy,  
Tunda ko'zgu bo'lar unga oy.  
Onasining bag'rige shoshib,  
Ot ketidan yuguradi toy.

Qushlar sayrar shaharlarida,  
Mavji baland anhorlarida.  
Dilni xushlab chechak ifori,  
Taratadi bahorlaridan.

Tabiat shundayin ko'r kam,  
Soat sayin kun sayin ko'r kam.  
Vatan ichra jajji Vatanim,  
Osoyishta betakror o'l kam!

Bizning qishlog' tog' etagida...

## **QISH**

Kumush qishga navbat berdi kuz,  
Ariqlarda suv o'rniда muz.  
Daraxtlarning bargi qolmadi,  
Ko'proq yomg'ir yog'ib olmadi.

Yog'ar endi faqat oppoq qor,  
Oppoq tog'lar to'kadi viqor.  
Dalalar oq libosin kiydi,  
Qish qilichin olib izg'iydi.

U ham shunday ustasi farang,  
Bolalarning shodligin qarang.  
O'ynashadi kulib qiyqirib,  
Bamisoli yuzlar lolarang.

Ayozbobo eng mohir naqqosh,  
Derazaga gullar chizadi.  
Qahraton qish chimirgancha qosh,  
Izg'irinda izg'ib kezadi.



**TARBIYACHIM**

Ko'rganda ilk parvozim,  
Mehrligim, mumtozim.  
Chin dildan quvonganim,  
Dilshodaxon ustozim.

Ismiga jismi monand,  
Orzulari sarbaland.  
Shogirdlari chin farzand,  
Dilshodaxon ustozim.

Ona kabi mehrli,  
So'zlari ko'p sehrli.  
Mening uchun fahrla,  
Dilshodaxon ustozim.

Iloho, yuzingizdan  
Tabassum arimasin.  
Xamisha yosh qalbingiz,  
Hech qachon qarimasin.

**TUG'ILGAN KUN**

Bugun mening tug'ilgan kunim,  
Bolaligim, yuzi gulgunim.  
Xayrlashdik ikkimiz chandon,  
Do'stim edi u sho'xu shodon.

Men-chi uni yig'lab kuzatdim,  
Ketma dedim, qo'lim uzatdim.  
Qaytishini intizor kutdim,  
Endi yoshlik qo'limdan tutdi.

## MUNDARIJA

O'zbekiston.....	3
O'zbekiston bayrog'i.....	4
«Mustaqillik tufayli».....	5
Tinchlik madhi.....	6
Vatan.....	7
Jaholatga qarshi ma'rifat.....	8
Keling O'zbekistonga.....	9
O'zbekiston Vatanim.....	9
Dunyo.....	10
Temur bobom.....	11
Iftixor.....	12
Dadajon.....	12
Ona tilim.....	13
Duogo'y nuroniylar.....	13
Zulfiya.....	14
Yoz fasli.....	15
Navro'z.....	16
Yangi yilni qutlaylik.....	17
So'nggi qo'ng'iroq.....	18
Kichkina ukam.....	18
Singlimning javobi.....	19
So'zlar otashi.....	19
Qishlog'im tabiat.....	20
Qish.....	21
Tarbiyachim.....	22
Tug'ilgan kun.....	22

*2500c.*

*Adabiy-badiiy nashr*

*Naima Nazaraliyeva*

# **Jannatmakon o'l kam mening**

*She'rlar*

**Muharrir:**

**Gulchehra Zokirova.**

**Tex. muharrir:**

**No'monxon Toshxojayev.**

**Kom. dizayneri:**

**Ismoilxon Toshxojayev.**

**Musahhih:**

**Kamolxon Boboxonov.**

Terishga berildi. 10.07.2015 y. Chop etishga ruxsat etildi. 25.08.2015 y.  
Shirift garniturasi Palatino Linotype. Oq qog'ozga ofset usulida bosildi.

Bichimi 60x84. 1/16. Nashriyot hisob tabog'i 1,5

Adadi 200 nusxa. Buyurtma № 298 Bahosi kelishilgan narxda.

«Namangan» nashriyoti. Namangan shahri,  
Navoiy ko'chasi, 36 Matbuot uyi, 3-qavat.

Nashriyot veb sayti: namnashr.uz  
e-mail: nvmab@inbox.uz

Nashriyot litsenziya raqami Al-156  
2009-yil 14-avgustda berilgan

Bosmaxona manzili: «Chust bosmaxonasi» MCHJ  
Chust shahri, So'fizoda ko'chasi 8-uy.